



BIOLOGIYA O'QITISHDA INNOVATSION USLUBLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Mardiyev Nodirbek Orifjonovich

Navoiy davlat pedagogika instituti Biologiya kafedrası 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada biologiyani o'qitishda innovatsion uslublardan foydalanish, innovatsion uslublarning mohiyati, va ularning o'quvchilar ta'lim olishida ahamiyati to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Axborot texnologiyalari, ko'nikma, biologiya, dars jarayoni .

Yoshlarni zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis qilib etishtirishda milliy ta'limning shakli va mazmunining ahamiyati yuqori. Bu ta'lim jarayonini mustaqil bilim olish asosida zamonaviy usullarda, yangicha ko'rinishlarda tashkil qilishga undaydi. Respublikamizda ta'lim-tarbiya muassasalarida innovatsion yondashish, faol va interfaol metodlarga hamda fanlararo bog'lanishlarga tayangan holda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan keng foydalanish o'quvchi shaxsiga yo'naltirilganiga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda Birinchi Prezidentimiz tomonidan axborot-kommunikasiya texnologiyalarini hayotimizning barcha jabhalari, jumladan, ta'lim jarayoniga keng tatbiq etishga katta e'tibor qaratilgan edi. Bu 2012 yil 21 martda qabul qilingan "Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari"ga oid qaror va "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunda, belgilangan asosiy vazifalardan biridir. Zamonaviy axborot texnologiyalarning yangi usullari ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish bilim berish sifatini oshirish, uning mazmun – mohiyatini chuqurlashtirish, ta'limni zamonaviy tashkil etishga erishish mumkin. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilari oldida quyidagi muhim vazifalar turadi:



- talabalarning mustaqil bilim olish, o'rganish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda fanning o'rni va ahamiyatini oshirish;
- mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va o'tkazish;
- talabalarning faolligini oshirish, o'zlashtirish darajalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metod va shakllarni qo'llash;
- ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish.(1)

Ta'lim tizimida muvaffaqiyatga erishishda multimedialli texnologiyadan foydalanish lozim. Ular darslarning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi, jarayonni qiziqarli qilishlari va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishlari, ularning hissiy holatiga ta'sir qilishlari mumkin. Multimedia ta'lim vositalari o'rganishga qiziqishini oshirishga imkon beradi; darsning eng qiyin daqiqalarini takrorlash; axborotni turli shakllarda parallel taqdim etish orqali ma'lumotlarning mavjudligi va idrok etilishini kuchaytirish: vizual va eshitish; elektron resursning badiiy va estetik dizayni yoki oqilona qo'llanilgan animatsiya va ovoz tufayli biologik pasayish bosqichida (dars boshlanganidan 25-30 minut o'tgach va darsning so'nggi daqiqalarida) o'quvchilar e'tiborini jalb qilish, o'tgan dars materialini takrorlash (takrorlash, qisqacha takrorlash) o'tkazishda muhim ahamiyatda ega. "Nima o'rgatish kerak?", "Nega o'rgatish kerak?", "Qanday qilib o'rgatish kerak?" degan savollargagina emas, balki "qanday qilib samarali o'rgatish kerak?" degan savollarga ham javob izlash. olimlar va amaliyotchilarni ta'lim jarayonini "texnologiyalash"ga urinishlariga olib keldi, ya'ni. o'qitishni kafolatlangan natijaga ega bo'lgan o'ziga xos ishlab chiqarish-texnologik jarayonga aylantirish va shu bilan bog'liq holda pedagogikada yo'nalish - pedagogik texnologiyalar paydo bo'ldi.

Pedagogik texnologiyaga bag'ishlangan ko'plab xalqaro nashrlarda u haqida shunday tushunchani uchratish mumkin: "Pedagogik texnologiya bu faqat o'qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish emas, oshirish omillarini tahlil qilish orqali o'quv jarayonini optimallashtirish tamoyillarini aniqlash



va usullarini ishlab chiqish, ta'lim samaradorligi, texnika va materiallarni loyihalash va qo'llash va qo'llaniladigan usullarni baholash orqali ushbu yondashuvning mohiyati maktab yoki boshqa ta'lim muassasasi ishini to'liq nazorat qilish g'oyasida yotadi. Yapon olimi-o'qituvchisi T.Sakamoto'ning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, pedagogik texnologiya - bu pedagogikaga tizimli fikrlash usulini joriy etish bo'lib, uni boshqacha tarzda "ta'limni tizimlashtirish" deb atash mumkin. (2)

Biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida darslarda turli o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar vositasida darslarni tashkil etish o'quvchilar biologik qonuniyatlar, hodisalar va hayotiy jarayonlarni o'rganish faoliyatini rivojlantiruvchi usullardan biridir. O'yinlar o'quvchilarning erkin fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlardan chiqa olish qobiliyatini oshiradi, tez javob topish ko'nikmasini rivojlantiradi, ziyrakligini orttiradi. O'yin darslari o'qitishning faol shakllaridan biridir. O'yin darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishlarini orttirish va bu bilan o'qish samaradorligini oshirishdir. O'yin darsning asosiy maqsadi o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishlarni oshirish va bu bilan o'qish samaradorligini oshirishdir. Tashqaridan qaraganda o'yin yengil, betashvish ko'rinishda, aslida boladan maksimum energiya berilishini aql, sabr toqat, mustaqillik kabi jihatlarni ishga solishni talab etadi. O'yin jarayoni biroz shovqin va tartibsizlik bilan kechgani uchun o'qituvchilar ko'pincha jim o'tirib tinglaydigan, shovqinsiz o'tadigan an'anaviy darslarni ma'qul ko'radi [3].

Men bugungi kunda o'quv amaliy jarayonlarimda o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish va bu bilan ta'lim jarayonining samaradorligi yuksaltirishda quyidagi interfaol texnologiyalardan foydalanaman:

"KROSSVORD". Krossvord boshqotirmalari uzoq vaqtdan beri ommabop o'yin-kulgi turlaridan biri bo'lib kelgan, bu ko'ngilochar va aqliy ongimizni sinovdan o'tkazuvchi va bilimlarni mustahkamlovchi metod turidir. Tushunish mashqi. Krossvord boshqotirmalarini yaratish ortidagi krossvord konstruksiyasini tushunish, o'quvchilarga o'zlarining boshqotirmalarini yaratishning murakkabligi va



ijodkorligi o'z jumboqlarini o'z ichiga olgan yoki shunchaki ushbu san'at shaklidagi jarayondan zavqlanishga qiziqqanlar haqida tushuncha berishlari uchun muhim deb hisoblayman. Afzalliligi o'quvchilar norasmiy sharoitda fikr almashinishiga, berilgan muammoni hal qilish bo'yicha o'z mustaqil fikrini bayon qilishga imkon yaratadi.

ChAYNVORD " texnologiyasi oquvchilarni mavzuga doir sozlarni yanada yaxshiroq anglashga undaydi. Oquvchilar zehnini otkir qiladi. Yangi sozlar hozil qilish boyicha bilim va konikmalarga ega boladi. Bajarilish tartibi:

Har bir oquvchiga jadvalli harflar jamlanmasi tarqatiladi.

Sozlarni toppish uchun joylashishlari tushuntiriladi.

O'quvchilarga vaqt beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish mamlakatimiz ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilishi bejiz emas. Chunki, pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini inqirozdan holi etish, uni bozor iqtisodi sharoitiga mos holda takomillashtirish va Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Zero ta'lim jarayonini tashkillashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanayotgan ko'pgina rivojlangan mamlakatlar o'quv jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga erishayotganliklari hayotda o'z tasdig'ini topmoqda.

Xulosa qilib aytganda, biologiya - darslarni hayotga bog'lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda innovatsion dars uslublardan foydalanish dars samaradorligi oshiradi. Innovatsion dars uslublari nihoyatda xilma-xil bo'lib, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarni qiziqarli bo'lishida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.



Фойдаланилган адабиётлар:

1. Abdalova S.R. "Fanlarni o'qitishda ta'lim texnologiyalarining o'rni" 2021
2. Iminova. D.R. Biologiya darslarida o'yinli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.19-20
3. Mirhayitova.S.I "Pedagogik texnologiya " o'quv qo'llanma . Toshkent 2020
4. www.ziyo.uz
5. www.pedagoglar.uz